

## O'ZBEKISTONDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI INNOVATSION ASOSDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10925550>

Taubayeva Madina

### Annotatsiya

*Ushbu maqolada O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatida innovatsion rivojlanishning o'rni va ahamiyati haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

### Kalit so'zlar

*Iqtisodiyot, tashqi iqtisodiyot, boshqaruvin, moliya, globallashuv, Jahon iqtisodiyoti, innovatsiya.*

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Iqtisodiyotda boshqaruvin tizimi eskirgani, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali mexanizmlar o'z vaqtida joriy qilinmagani ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik, resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi ham iqtisodiy taraqqiyot yo'lida to'siq bo'lmoqda", deya ta'kidlab o'tgan.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi islohotlar, eng avvalo, dunyoda, shu jumladan, jahon iqtisodiyoti konyunkturasida yuz berayotgan turli o'zgarishlarga mos holda amalga oshirilmoqda. Tanlab olgan yo'limiz global inqirozdan keyin jahon iqtisodiyoti rivojlanish sur'atlari pasaygan bir sharoitda o'zining barqarorligi va hayotiyagini ko'rsatayotir. Mamlakatimizda keyingi yillarda tashqi siyosat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro maydonidagi salohiyatini kengaytirish va xorijiy davlatlar bilan keng qamrovli hamda o'zaro manfaatli aloqalarini rivojlanirishga xizmat qilib kelmoqda.

Jahon iqtisodiyotidagi inqiroz hodisalari bilan tavsiflangan globallashuvning zamонавиј bosqichi davlatlar o'rtasidagi tashqi iqtisodiy aloqalarning tabiatи va shakllariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan davlatlarning jadal rivojlanishi bilan bir qatorda, mamlakatlar o'rtasida nisbatan kichik davlatlar guruhi doirasida xizmatlar, kapital, mehnat va axborot mahsulotlarining xalqaro oqimlari o'rtasida farqlanish kuchaymoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar so'nggi o'n yil ichida xalqaro tizimda o'z

pozitsiyalarini kuchaytirgan bo'lsa-da, shu bilan birga, rivojlangan davlatlar o'zlarining ilmiy va texnologik afzalliklariga tayanib, ishlab chiqarishda innovatsiyalarni rag'batlantirib, jahon iqtisodiyotida yetakchilar bo'lib, ular xalqaro tovar va xizmatlar savdosida bir tomonlama afzalliklarga ega bo'lishga imkon beradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat-bu turli mamlakatlardan kelgan korxonalarning savdo bitimlari bilan bog'liq. Tashqi iqtisodiy faoliyatga xalqaro ko'rgazmalar, investitsiyalar va qo'shma ishlab chiqarish kiradi. Lekin tashqi savdo asosiy qismi - xalqaro savdo. Savdo qilish uchun kompaniyalar tovarlarni davlatlarning bojxona chegaralari orqali ko'chirishlari kerak. Tashqi iqtisodiy faoliyat mutaxassislari bunday bitimlar uchun javobgardir. Tashqi iqtisodiy faoliyat yoki tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar va xizmatlarni eksport qilish yoki import qilish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyatdir. Boshqacha aytganda, bu chet el bilan milliy vakilning savdosi. Bu holatda savdosotiq nafaqat tovarlarni sotib olish va sotish, balki xalqaro loyihalarni amalga oshirish, shuningdek, investitsiyalar va kreditlar bilan bog'liq faoliyatni ham tushunish mumkin. Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari davlat hokimiyati organlari, tijorat va davlat korxonalari hamda jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bojxona qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi qonunining 3-moddasiga binoan Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda, O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 33 yilligini izchil ichki islohotlar va yangilangan tashqi siyosat bilan kutib olmoqda. Mamlakat ichki hayotida kuzatilayotgan ochiqlik, innovatsiya va yangilanishlar, shuningdek, iqtisodiy liberallashtirish, bozorni rivojlantirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, raqamlashtirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish, ta'lim va ma'rifat, fuqarolar faolligi va inson huquqlari himoyasiga e'tibor - bularning barchasi, shubhasiz, mamlakatimizning tashqi siyosatiga ta'sir o'tkazmoqda.

Bugungi kunda tashqi savdo respublikamiz iqtisodiy faoliyatining asosiy qismi bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu sohada davom ettirilayotgan islohotlar mahalliy va xalqaro bozorlarni mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlash imkonini bermoqda. Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati

oshib bormoqda. Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

Shu o'rinda, milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Boshqacha so'z bilan aytganda, innovatsiya faoliyatini rivojlantirmay turib, iqtisodiyot raqobatbardoshligiga erishib bo'lmaydi. Innovatsiya atamasining mazmunidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, qachonki har qanday kashfiyotlar, yangi voqealar, xizmatlar va usullar turlari tarqalishiga qabul qilinsa, o'shanda xalq ommasi tomonidan tan olinadi. Bunda yangilikning joriy etilishi yangilikni qo'llash jarayonini bildiradi va yangilikning tarqatilishiga qabul qilinishi vaqtidan boshlab yangi sifat – innovatsiyaga aylanadi.

Demak, innovatsiyani hayotga joriy qilishdan maqsad biror bir ijobiy natijaga erishishdir. Bundan shuni anglash mumkinki, innovatsiya sohasi o'z-o'zidan investitsiya sohasi bilan chambarchas bog'liqdir. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida innovatsion-investitsion faoliyatning ustuvor yo'naliishlari sifatida quyidagilarni ko'rshimiz mumkin:

- korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish;
- eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish;
- ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan real sektor korxonalarining raqobatdoshligini oshirish;
- elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish;
- ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash.

Bilamizki, samarali innovatsiya loyihalarini amalga oshirish iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulot tannarxini pasaytirish, mehnat unumдорligini oshirish, mahsulotlar sifatini oshirish va umuman iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida asrlarga arziyidigan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnni egalladi, uning mavqeyi yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyat respublikamiz iqtisodiy faoliyatining asosiy qismi bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu sohada davom ettirilayotgan islohotlar mahalliy va xalqaro bozorlarni mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlash imkonini bermoqda. Bugungi kunda O'zbekiston xalqaro hamjamiyatda o'z ovoziga ega bo'lib, nufuzli xalqaro tashkilotlar a'zosi hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ma'muriy tartib-taomillarni yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" – 2019. 23-apreldagi PQ-4297-son qarori. <http://lex.uz>
2. Xujamkulov D.Yu., Ismailov D.A. – "Investitsiya Loyihalarini Boshqarish", – Toshkent. – 2019.
3. Xamedov I.A., Alimov A.M. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. – T., 2001-yil.
4. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. – "Iqtisodiyot Nazariyasi" . – 2017-y
5. Эскиндаров М.А., Шаркова А.В., Меркулина И.А. Экономика и финансы ТЭК. Учебник. – М.: КноРус. 2019.